

ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI – HUQUQIY DAVLATNING POYDEVORI.**Muxammadiyeva Sevara Yolg'oshoyna**

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 1 - bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18744439>

Annotatsiya. Mazkur maqolada adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarining huquqiy davlat qurishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Huquqiy davlat tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy belgilari hamda adolat prinsipining jamiyat taraqqiyotidagi roli yoritib beriladi. Shuningdek, qonun ustuvorligi davlat va jamiyat boshqaruvida barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Maqolada adolat va qonun ustuvorligining o'zaro bog'liqligi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijasida huquqiy davlatning mustahkam poydevori aynan adolat va qonun ustuvorligi tamoyillariga tayanishi xulosasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: huquqiy davlat, adolat, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, demokratiya, huquqiy tamoyillar, davlat boshqaruvi.

Abstract. This article analyzes the role and significance of the principles of justice and the rule of law in the formation of a legal state. The theoretical foundations of the concept of a legal state and its main characteristics are examined, as well as the role of justice in ensuring social stability and development. The rule of law is considered as a fundamental principle that guarantees equality before the law and limits state power through legal norms. The article also explores the interrelation between justice and the rule of law and their importance in protecting human rights and freedoms. The study concludes that a stable and democratic legal state can only be established on the basis of justice and the supremacy of law.

Keywords: legal state, justice, rule of law, human rights, democracy, legal principles, state governance.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение принципов справедливости и верховенства закона в формировании правового государства.

Рассматриваются теоретические основы понятия правового государства, его основные признаки, а также значение принципа справедливости в обеспечении устойчивого развития общества. Верховенство закона представлено как фундаментальный принцип, гарантирующий равенство всех перед законом и ограничивающий государственную власть правовыми нормами. В статье также раскрывается взаимосвязь справедливости и верховенства закона и их значение в защите прав и свобод человека. Делается вывод о том, что прочное и демократическое правовое государство может быть построено только на основе справедливости и верховенства закона.

Ключевые слова: правовое государство, справедливость, верховенство закона, права человека, демократия, правовые принципы, государственное управление.

Adolat va qonun ustuvorligi – shunchaki balandparvoz iboralar emas, balki har qanday demokratik jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi qo'sh ustundir. Agar davlatni ulkan bir imorat deb tasavvur qilsak, adolat uning asosi, qonun ustuvorligi esa uni ushlab turuvchi karkasidir.

Shunday ekan bu iboralar bir-birini takrorlamaydi, aksincha to'ldiradi. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish – Taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ustivor yo'nalishi, vazifasi sifatida belgilab olindi.

Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog'liq tamoyil bo'lib, inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi yo'lida olib borilayotgan amaliy ishlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Huquqiy davlat g'oyasi o'zining nazariy ildizlariga ega bo'lib, Yevropa huquqiy tafakkurida "rule of law" konsepsiyasi sifatida shakllangan. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, davlat hokimiyati cheklangan bo'lishi, barcha subyektlar, jumladan davlat organlari ham qonunga bo'ysunishi shart. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham qonun ustuvorligi va inson huquqlari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan.

Huquqiy davlat qurish har bir demokratik jamiyatning asosiy maqsadlaridan biridir.

Bunday davlatning mustahkamligi va barqarorligi esa, avvalo, adolat hamda qonun ustuvorligi tamoyillariga tayanadi. Huquqiy davlat faqatgina qonunlar mavjud bo'lgan davlat emas, balki qonun ustuvorligi ta'minlangan, inson huquq va erkinliklari kafolatlangan, davlat hokimiyati cheklangan va nazorat qilinadigan tizimdir. Shu jihatdan qaraganda, adolat va qonun ustuvorligi huquqiy davlatning nazariy hamda amaliy asosini tashkil etadi.

Huquqiy davlat tushunchasi davlat hokimiyatining qonun bilan chegaralanganligi va barcha subyektlarning, jumladan davlat organlarining ham qonunga bo'ysunishini anglatadi.

Bunday davlatda Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega bo'lib, barcha normativ-huquqiy hujjatlar unga muvofiq bo'lishi shart. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, sud hokimiyatining mustaqilligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarining mavjudligi huquqiy davlatning asosiy belgilaridandir. Ammo ushbu belgilar samarali ishlashi uchun ularning zamirida adolat tamoyili yotishi zarur.

Adolat tushunchasi huquqiy kategoriyalarning eng muhimlaridan biridir. U tenglik, xolislik, javobgarlik va me'yoriylik kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Adolatli jamiyatda har bir shaxs qonun oldida teng bo'ladi, uning huquqlari kafolatlanadi va buzilgan taqdirda tiklanadi.

Adolat nafaqat sud faoliyatida, balki qonun ijodkorligi jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Agar qonunning o'zi adolat prinsiplariga zid bo'lsa, u holda bunday norma jamiyatda ishonch va barqarorlikni ta'minlay olmaydi. Shuning uchun ham huquqiy davlatda adolat qonun mazmunining ichki mohiyatini belgilaydi.

Qonun ustuvorligi esa huquqiy davlatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Qonun ustuvorligi deganda, barcha fuqarolar va mansabdor shaxslarning qonunga birdek bo'ysunishi, davlat organlarining o'z vakolatlarini faqat qonun doirasida amalga oshirishi tushuniladi. Bu prinsip davlat hokimiyatining cheksiz va nazoratsiz bo'lishining oldini oladi. Qonun ustuvorligi mavjud bo'lgan jamiyatda shaxs erkinligi kafolatlanadi, o'zboshimchalik va suiiste'mollarning oldi olinadi.

Adolat va qonun ustuvorligi o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalardir. Qonun adolatni amalga oshirish vositasi bo'lsa, adolat qonunning maqsadi va mazmunini belgilaydi. Qonun ustuvorligi ta'minlanmagan jamiyatda adolat to'liq qaror topmaydi, adolatsiz qonunlar esa huquqiy davlat asoslarini zaiflashtiradi. Shu boisdan ham huquqiy davlatni barpo etishda nafaqat qonunlar sonining ko'pligi, balki ularning adolatli, insonparvar va demokratik ruhda bo'lishi muhimdir.

Zamonaviy demokratik jamiyatlarda inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Inson huquqlarining real kafolati esa aynan qonun ustuvorligi va adolat prinsiplariga tayanadi. Sud tizimining mustaqilligi, prokuratura va boshqa nazorat organlarining qonuniy faoliyati, fuqarolarning o'z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlari huquqiy davlatning amaliy ko'rinishidir. Agar adolat va qonun ustuvorligi hayotga tatbiq etilsa, jamiyatda ijtimoiy ishonch va barqarorlik mustahkamlanadi.

Konstitutsiyaviy normalarga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi. Bu esa qonunlarning mazmuni va maqsadi bevosita inson manfaatlariga qaratilishi lozimligini anglatadi. Shu jihatdan, qonun ustuvorligi inson huquqlarining real kafolatini ta'minlovchi asosiy mexanizmdir.

Adolat esa huquqiy davlatning axloqiy-me'yoriy mezonini hisoblanadi. U tenglik, xolislik, javobgarlik va proporsionallik kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Agar qonun adolat mezonlariga mos bo'lmasa, u formal jihatdan amal qilsa ham, jamiyatda ishonchni shakllantira olmaydi. Shuning uchun zamonaviy huquqshunoslikda "adolatsiz qonun – haqiqiy qonun emas" degan nazariy qarash mavjud.

Qonun ustuvorligi tamoyili quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi;
- Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi;
- Sud hokimiyatining mustaqilligi;
- Qonun oldida tenglik;
- Davlat organlarining javobgarligi va ochiqqligi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, advokatura institutini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyatining ochiqqligi ta'minlanishi, sud qarorlarining elektron e'lon qilinishi qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ustuvor yo'nalishi aynan adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga bag'ishlangan. Bu esa mazkur tamoyillar davlat siyosatining markaziga qo'yilganini anglatadi.

Huquqiy davlatning barqarorligi faqat normativ bazaga bog'liq emas. U jamiyatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan chambarchas bog'liq. Fuqarolarning qonunga hurmati, davlat organlarining mas'uliyati va shaffofligi adolat prinsipining real hayotda qaror topishiga xizmat qiladi.

Adolat va qonun ustuvorligi o'zaro dialektik birlikni tashkil etadi. Qonun adolatni amalga oshirish vositasi bo'lsa, adolat qonunning mazmunini belgilaydi. Ularning uyg'unligi huquqiy davlatning nazariy va amaliy asosini mustahkamlaydi.

Huquqiy davlat qurish jarayoni uzluksiz va murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirishni, balki huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishni ham talab qiladi. Fuqarolarning qonunga hurmati, davlat organlarining mas'uliyati va ochiqqligi adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, huquqiy davlatning poydevori nafaqat qonunlarda, balki jamiyatning huquqiy tafakkurida ham mustahkamlanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adolat va qonun ustuvorligi huquqiy davlatning konseptual hamda institutsional asosini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq tamoyillardir.

Huquqiy davlatning samarali faoliyati faqat normativ-huquqiy bazaning mavjudligi bilan emas, balki qonunlarning adolat mezonlariga muvofiqligi va ularning amalda so'zsiz ijro etilishi bilan belgilanadi. Qonun ustuvorligi davlat hokimiyatini huquqiy chegaralar doirasida ushlab turuvchi mexanizm bo'lsa, adolat ushbu mexanizmning mazmuniy yo'nalishini belgilaydi.

Tahlillar shuni anglatadiki, inson huquq va erkinliklarining real kafolati aynan ushbu ikki prinsipning uyg'un holda amal qilishi bilan ta'minlanadi. Qonun oldida tenglik, sud hokimiyatining mustaqilligi, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda davlat organlarining javobgarligi adolat va qonun ustuvorligining amaliy ifodasidir. Ushbu omillar jamiyatda ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi, huquqiy barqarorlikni ta'minlaydi va demokratik taraqqiyot uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Shu bois, huquqiy davlatni barpo etish jarayonida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash strategik vazifa sifatida qaralishi lozim. Bu nafaqat davlat hokimiyatini cheklash va inson huquqlarini kafolatlash, balki jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy ongni shakllantirish va boshqaruv tizimining ochiqqligini ta'minlashni ham talab etadi. Demak, adolat va qonun ustuvorligi huquqiy davlatning nazariy poydevori bo'lish bilan birga, uning amaliy samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, 2022.
3. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / Mas'ul muharrirlar tahriri ostida. – Toshkent: Adolat, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Rasmiy veb-sayt materiallari va sud-huquq islohotlariga oid ma'lumotlar.
5. Montesquieu. Qonunlar ruhi haqida. – Tarjima nashri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002.
6. A.V. Dicey. Introduction to the Study of the Law of the Constitution. – London: Macmillan, 1885.
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – 1948-yil 10-dekabr.
8. Yevropa Kengashi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya. – Rim, 1950.